

Herald pedagogiki. Nauka i Praktyka

wydanie specjalne



Editorial Team

Editor-in-chief: *Gontarenko N.*

EDITORIAL COLLEGE:

W. Okulicz-Kozaryn, *dr. hab, MBA, Institute of Law, Administration and Economics of Pedagogical University of Cracow, Poland;*

L. Nechaeva, *PhD, PNPUI Institute K.D. Ushinskogo, Ukraine.*

K. Fedorova, *PhD in Political Science, International political scientist, Ukraine.*

ARCHIVING

Sciendo archives the contents of this journal in ejournals.id - digital long-term preservation service of scholarly books, journals and collections.

PLAGIARISM POLICY

The editorial board is participating in a growing community of [Similarity Check System's](#) users in order to ensure that the content published is original and trustworthy. Similarity Check is a medium that allows for comprehensive manuscripts screening, aimed to eliminate plagiarism and provide a high standard and quality peer-review process.

About the Journal

Herald pedagogiki. Nauka i Praktyka (HP) publishes outstanding educational research from a wide range of conceptual, theoretical, and empirical traditions. Diverse perspectives, critiques, and theories related to pedagogy – broadly conceptualized as intentional and political teaching and learning across many spaces, disciplines, and discourses – are welcome, from authors seeking a critical, international audience for their work. All manuscripts of sufficient complexity and rigor will be given full review. In particular, HP seeks to publish scholarship that is critical of oppressive systems and the ways in which traditional and/or “commonsensical” pedagogical practices function to reproduce oppressive conditions and outcomes. Scholarship focused on macro, micro and meso level educational phenomena are welcome. JoP encourages authors to analyse and create alternative spaces within which such phenomena impact on and influence pedagogical practice in many different ways, from classrooms to forms of public pedagogy, and the myriad spaces in between. Manuscripts should be written for a broad, diverse, international audience of either researchers and/or practitioners. Accepted manuscripts will be available free to the public through HPs open-access policies, as well as we planed to index our journal in Elsevier's Scopus indexing service, ERIC, and others.

HP publishes two issues per year, including Themed Issues. To propose a Special Themed Issue, please contact the Lead Editor Dr. Gontarenko N (info@ejournals.id). All submissions deemed of sufficient quality by the Executive Editors are reviewed using a double-blind peer-review process. Scholars interested in serving as reviewers are encouraged to contact the Executive Editors with a list of areas in which they are qualified to review manuscripts.

O'ZBEK TILIDAGI SHAXSIY YOZISHMALARDA NOADABIY UNSURLARNING MILLIY KORPUSINI YARATISH ASOSLARI

To'rayeva Dildora Anvarovna

A.Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o'zbek tili va adabiyoti universiteti
"Amaliy tilshunoslik va lingvodidaktika"
kafedrası o'qituvchisi
dildoratorayeva9@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada o'zbek tilidagi anonim shaxsiy yozishmalarning lingvistik ekspertizasi haqida fikr bildirilgan. Yozishmalardagi noadabiy grammatik unsurlarni sifat va miqdorga ko'ra guruhlash va uning milliy korpusini yaratish to'g'risida mulohaza yuritilgan.

Kalit so'zlar: lingvistik ekspertiza, anonim yozishma, noadabiy Grammatik unsur, sifat va miqdor, korpus.

THE BASIS OF THE CREATION OF THE NATIONAL CORPUS OF NON- LITERARY ELEMENTS IN PERSONAL CORRESPONDENCE IN THE UZBEK LANGUAGE

Turaeva Dildora Anvarovna

Lecturer of the Department of "Applied Linguistics and Linguodidactics"
Tashkent State University of Uzbek Language and
Literature named after A. Navoi.
dildoratorayeva9@gmail.com

Abstract. The article informs a theory on linguistic expertise of anonymous personal correspondence in Uzbek language. There was a consideration on grouping of non-literary grammatical peculiarities of suffixes in the correspondence by quality and quantity and the creation of its national body.

Keywords: linguistic expertise, anonymous correspondence, non-literary grammatical suffixes, quality and quantity, corpus.

Nutqning to'g'riligi, sofligi, tiniqligi, ravonligini ta'minlab turuvchi va unga joziba baxsh etuvchi omil adabiy me'yorlar sanaladi. Inson qanchalik til me'yorlariga amal qilgan holda gapirsa, jamiyatda shunchalik o'z o'rniga ega bo'lib boradi. Ammo har doim ham insonlar to'g'ri va ravon so'zlashmaydi. Chunki inson faoliyatdagi, o'zining yashash muhiti, dunyoqarashiga ko'ra o'ziga xos bo'ladi. Shuningdek, bu beqarorlik uning nutqiga

ham o'z ta'sirini o'tkazadi.

Bugungi kunda o'zbek amaliy tilshunosligi sohasida qator tadqiqotlar amalga oshirilgan . Lingvistik ekspertiza korpuslarini yaratish va maliyotda tadbqiq etish masalasida jahon tilshunosligida qator tadqiqotlar amalga oshirilgan . Endilikda nazariy fikrlar amaliy isbotini talab etmoqda. Nutqning og'zaki turidan farqli o'laroq, nutqning yozma shakli, dastlab, fikrlash, keyin qayta o'ylanib tahrirlash xarakteriga ega . Yozma nutq shakli uchun quyidagilar xos: grafika tizimi; imlo va punktuatsiya; adabiy me'yorlarga qat'iy rioya qilish; so'z birikmalari va frazemalarni maxsus tanlash; murakkab jummalardan foydalanish; so'z tartibi; monologik shaklning alohida o'rni kabilar . Qayd etilgan til an'analaridan, so'z birikmalaridan, grammatik qoida va tavsiyalarga nomuvofiq yondashuv adabiy me'yorning buzilishiga olib keladi. Bu esa nutq madaniyatiga ega bo'lmaslik belgisi sifatida qaraladi.

Tadqiqotchi olim S.N.Zeitlin "Nutqiy xatolar va ularning oldini olish" mavzusidagi tadqiqotida nutqiy-me'yoriy buzilishlarni quyidagicha farqlaydi:

a)so'z shakllanishi - so'zlashuv jarayonida tasodifiy, inson bilmagan holda noadabiy shakllangan so'zlarni qo'llashdan iborat;

b) morfologik - so'z tarkibining g'ayritabiiy shakllanishi va nutq qismlarini ishlatishdan iborat;


c) sintaktik - so'z birikmalarini, oddiy va murakkab jummalarni noto'g'ri tuzishdan iborat;

d) leksik - noadabiy leksik unsurlar, konselyarizm, parazit so'zlardan iborat;

e) frazeologik - frazeologik birliklarni noadabiy me'yorda qo'llashdan iborat;

g) uslubiy - so'zlashuv uslublariga rioya qilmaslikdan iborat .

Inson so'zlayotganda leksik qatlam qatori grammatik shakllarni qo'llashda adabiy me'yordan chetga chiqishi mumkin. Bunday noadabiy grammatik unsurlar O'zbekistonning har bir hududida alohida variantlariga ega. So'zlashuv jarayonida nutqning fikrni ixcham ifodalash, tinglovchiga tezroq yetkazish maqsadida so'zlar va birikmalarni turli variantlarda ifodalaydi. Ya'ni birliklar fonetik hodisalarga uchraydi va bu jarayon, albatta, shaxsiy yozishmalarning barcha turida, shuningdek, maktub va elektron xabar turlarida uchrashi mumkin.



Ushbu yozishmada noadabiy so'zlar: diszmi, ozi, xama, ovosiz, omagan, nimeyiz, qorqmen, berin, qiliyla, bosiyla, disla, bita, kelip, bosasla.

Xatolarni farqlaganda, avvalo, uni kategoriyalarga ajratish kerak, ya'ni texnik xato, grammatik xato, leksik xato, sintaktik xato, imloviy xato, uslubiy xato, punktuatsion xato kabilar . Keyin shu xatolarning yozishmadagi so'zlar misolida tasnifini berish kerak. Masalan:

Texnik xato	Grammatik xato	Leksik xato	Imloviy xato
Ozi (o'zi)	Ovosiz (olyapsiz)	Dsizmi (deysizmi)	Xama (hamma)
Min (ming)	Kelip (kelib)	Ovosiz (olyapsiz)	Tuzu joy (tuz-u joy)
Qorqmen (qo'rqmen)	Nimeyiz (nimangiz)	Qorqmen(qo'rqmen)	Bitra (bitta)
	Bosasla (bosasizlar)		
	Bosiyla (bosinglar)		

Tasnifdan ayon bo'ladiki, nimeyiz so'zida -yiz shakli II shaxs ko'plikdagi egalik shakli sanaladi. Bu shakl shaxsiy yozishmalarda -iz tarzida ham qo'llaniladi. Kelip so'zida -ib ravishdosh shakli, jarangsizlanish hodisasigauchrab -ip tarzidayozuvdaaks etgan. Bosasla, bosiyula so'zlarida II shaxs birlik va ko'plik buyruq-istak maylining noadabiy qo'llanishi berilgan. Bosasla so'zida tovush tushish hodisasi yuz bersa, bosiyula so'zida -ing shakli -iy tarzida berilib tovush almashinishi va -lar shakli -la tarzida ifodalanib tovush tushishi jarayonlari mavjud. II shaxs buyruq istak maylini hosil qiluvchi noadabiy Grammatik shakllar: -ing, -ingiz, -inguz, -iz; -g, -ngiz, -n+g'iz tarzida ifodalanadi. Agar bu shakllar ko'plik mazmunini ifoda etmoqchi bo'lsa, -ingizlar, -ngizlar tarzida -lar shaklini qo'shish bilan hosil bo'ladi.

Darvoqe, shaxsiy yozishmalarda, ko'pincha, texnik xatolar ham uchraydi. Bu yozuvchining o'zini anglamagan holda sodir bo'ladi. Texnik xatolar noma'lum xabarda muallifni aniqlash uchun kam miqdorda ahamiyatlidir. Shuning uchun ham texnik xatolarni tahlilga tortmay, shunchaki kodlashtirib tahlil korpusiga kiritsa bo'ladi. Bu kam miqdorda bo'lsa ham, yozishma muallifini aniqlashda qo'l kelishi mumkin.

Kelishik kategoriyasi gapda so'zlarning grammatik bog'lanishini ta'minlab beradi, shuningdek, bu shakllar so'zlarning gapdagi vazifasini ham belgilashga xizmat qiladi. Bu xususiyat o'zbek adabiy tili va shevalari uchun ham birdek umumiy xarakter kasb etadi. O'zbek tilida oltita kelishik va beshta grammatik ko'rsatkich bor. Bosh kelishik qo'shimchasi mavjud emas. O'zbek tili shevalarida kelishik kategoriyasining soni va shaklida tafovut bo'lib, bu shakllar turli lahja va hududlarga ko'ra xoslangandir.

Quyidagi yozishmada tushum kelishigi -mi shaklida qo'llangan: borimmi, jonimmi. Bunda assimillatsiyaning progressiv hodisasi yuz bergan bo'lib, n til oldi tovushi m lab tovushiga moslashyapti:




...й дэб жонимми боримми
бэриб булса хам оиламдан узоклашмай
дэп бир иш бошлаш максатида
махалламизда буш каровсиз ётган ерни
сурадим бэрмади хокимиятка бордим

Ayrim hududlarda ham qaratqich kelishigi o'rnida tushum kelishigi ishlatiladi, ammo -di, -mi, -i shaklida ifodalanadi: uydi poli, ayamdi sumkalari (Farg'ona vil. Uchko'prik tum.), kitobdi varag'i, uyimdi tomi, xolammi uyi, do'stimmi xati (Qashqadaryo), derazani oynasi, maktabdi xonasi (Samarqand vil. Bulung'ur tum.), sabrri mevasi, maytappi

oshxonasi (Toshkent shahar), darxtti bargi, moshinni oynasi (Navoiy vil. Xatirchi tum.) kabi.

Chiqish kelishigi qo'shimchasi o'zak va negizlarga qo'shilib kelish jihatidan adabiy me'yordan farq qilmaydi. Ammo so'zning jarangli va jarangsiz undosh tovush bilan tugashiga ko'ra -tən, -lən tarzida qo'llaniladi: ottən baland (Buxoro); gəptən qolmaydi (Andijon); maktaptan kel (Samarqand); oshattan opkelmedi (Marg'ilon); toshtən qattiq (Urgut) kabi. Quyidagi yozishmada ham bu aks etgan:



Shaxsiy yozishmada ishtan so'zi, asli o'zakning sh jarangsiz undoshi bilan tugaganligi sababli ham o'zidan keying -dan, ya'ni d jarangli undoshni o'ziga moslashtiryapti. Bu ham assimilatsiya fonetik hodisasining mahsulidir.

Yuqoridagi tahlillardan xulosa qilish mumkinki, noadabiy grammatik shakllarning yuzaga kelish sabablari talaffuz jarayonidagi fonetik hodisalarga bog'liq. Nutq jarayonida yuzaga kelgan fonetik hodisaga uchragan grammatik shakllar talaffuz bilan bir qatorda shaxsiy yozishmalarda ham aks etadi. Bunda, asosan, tovush almashinishining assimilatsiya turi salmoqli o'rinni egallaydi. Bu kelishik, egalik, fe'lning ravishdosh shakli kabilarda yuzaga kelyapti. Chunki bu hodisa o'zak va qo'shimchaning talaffuzi qulayligini ta'minlaydi. Tovush tushishi jarayoni ko'plik shakli, kelishik shakllari, buyruq-istak mayli kabi shakllarda sodir bo'lyapti.

Tahlil. Har bir insonning nutqi ichki olamining oynasi hisoblanadi. Ammo nutqiy faoliyat uchun tashqi ta'sirlarning o'rni ham nihoyatda katta. Hudud, ijtimoiy mansublik, hatto iqlimning ham o'rni bo'lak. Hammasining mushtarakligi natijasi o'laroq, tilimizda noadabiy unsurlar yuzaga keladi. Bu filologiya sohasi uchun o'zbek tilidagi leksik va grammatik qatlamning boyishi uchun xizmat qilsa, sud-huquq tizimida ayrim jinoyatchining individual portetini yaratishda zamin vazifasini bajaradi. Zero, inson nutqi, xatti-harakati orqali boshqalarga ma'lum bir tasavvur uyg'otadi. Shuningdek, pirovardida inson omili yotgan amaliy tilshunoslik va sud ekspertiza jarayoni uchun bu jamiyat a'zosining hayot-mamot masalasini hal qilishi mumkin.

Amerikalik olim V.L.Milom sakkizta til misolida milliy tilni aniqlash haqida tadqiqot olib borgan. Unda yozishmalardagi lingvistik belgilar ajratilgan, o'zaro qiyoslangan va o'ziga xos jihatlari farqlangan. Bu o'zga tilli shaxslarning jinoiy ishlarini fosh qilishga ancha yordam beradi. Olima V.L.Milomning tahliliga suyangen holda o'zbek tilidagi to'rtta hududga xos shaxsiy yozishmalarda noadabiy grammatik unsurlarni aniqlandi. Bunda 4-5 ta gapdan iborat SMS yozishma misol tariqasida olindi. Hududiy jihatdan farqlandi va yozishmalardagi noadabiy grammatik kategoriyalar tasniflandi. Ma'lumotlar miqdori, sifati deyarli bir-xil tarzda ifodalandi. Tahlil quyidagi jadvalda aks etadi:

	Shaxsiy yozishmalarga asoslangan misollar	Noadabiy grammatik shakllar	So'z yasovchi	Sintaktik shakl yasovchi sh.	Lug'aviy shakl yasovchi sh.	Hududiy mansubligi
1	-Assalomu alekum , apa yaxshimisiz, bachalariz yaxshimi? -Ha,zo'rman.Yaznam qanday yaxshimila,nimala qilopsizla? -O'zlaring nima qilopsila? -Manam shu.Kuyoviz ketganla Samarqandga. Man bachala bilan uygaman.Biza tomonlaga qachon kelasiz bir aylanib.	-iz (-ngiz egalik sh.), -la (-lar hurmat ma'nosidagi sh.), -op (-yap hozirgi zamon sh.), -a (-lar ko'plik sh.), -la (umumlashtirish ma'nosidagi sh.), -siz (-siz shaxs-son sh.)	-	3	3	Navoiy
2	Unda rosa topishiptida-a? - Nima bo'sayam o'zimizi qishlag'imizi to'ylari boshqachaya. Mazza qivorasan. - Madini kuzatvatkanda ayasi yomon yig'lavordiya, o'zimi zo'rg'a tuttim. Haqqatta tan olish kere.	-ip (-ib ravishdosh sh.), -i (-ni kelishik. sh.), -yatkan (-yotgan sifatdosh sh.), -ti (-di zamon sh.), -ta (-dan kelishik sh.)	-	3	2	Andijon
3	Qizla iftorliga sinfdoshla yig'ilishvotganakan. Qatgadir borili uchchalamiz. Bilmadim, mani rasa borgim kevvotti. Kellarine Uje hamma o'zgarip ketgande o'rto. Hilolapammi opke.	-la (-lar ko'plik sh.), -votgan (-yotgan sifatdosh sh.), -ili (-aylik mayl sh.), -votti (-yapti zamon sh.), -ip (-ib ravishdosh sh.) -in (-ing shaxs-son sh.),-de(-dayuklama sh.),-mi(-ni kelishik sh.)	-	4	4	Toshkent

Tahlil natijasiga ko'ra, O'zbekistonning to'rtta hududi bo'ylab shaxsiy yozishmalarda noadabiy grammatik unsurlarning 56 %i sintaktik shakl yasovchi qo'shimchalarda, 39 %i lug'aviy shakl yasovchi qo'shimchalarda va 4 %i so'z yasovchi qo'shimchalar doirasida yuz bergan.

Xulosa. Tilshunos ekspert tomonidan har bir shaxsiy yozishma o'rganilar ekan, noadabiy grammatik shakllarning soni va kategorial mansubligi muhim ahamiyatga ega. Bu

psixolingvistika sohasi bilan ham bog'liq. Bu shaxsiy yozishmalarning morfologik xususiyatlarini aniqlashga yordam beradi. Bu matn muallifining nutqiy o'ziga xosligini o'rganishda va shu orqali uning yashash hududini aniqlashga katta xizmat qiladi. Buni sifat va miqdor deb atash mumkin. Bu usul shaxsiy yozishmalarni lingvistik tahlil qilishda muhim ahamiyatga ega. Anonim xat muallifini aniqlash uchun gumonlanuvchilarning har biridan kamida o'ntadan yozishma namunasi olinadi. Shu to'plangan matnning tashkil etuvchi birliklari kategoriyalashtiriladi. Bunda har bir kategoriyaga oid birlikning soni, turi, me'yoriy ifodalanishi kabi xususiyatlari tahlil qilinadi. Shu asosda anonim xat muallifining nutqiy o'ziga xos tomonlarini farqlash mumkin. Demak, yuqoridagi tahlilda Xorazmda noadabiy grammatik shakllar kam uchraydi. Bu hudud shevalarida noadabiy leksik unsurlar ko'pchilikni tashkil etishi mumkin (Bu keyingi hududiy tahlil misolida beriladi). Toshkent va uning atrofida hududlarda esa noadabiy leksik unsurlar sakkiztani tashkil etadi. Navoiy va Andijon hududlarida bu shakllar o'rta me'yorda qo'llaniladi. Tahlil xulosasiga ko'ra, nisbatan Toshkent va uning atrofida noadabiy grammatik shakllar shaxsiy yozishmalarda faol qo'llaniladi. Xorazm va uning atrofida esa noadabiy grammatik shakllar, nisbatan, kam qo'llaniladi. Ushbu tahlil gumonlanuvchi shaxsning noadabiy grammatik shakllarining miqdori va sifatini alohida korpus sifatida shakllantirish uchun alos vazifasini bajaradi. Bu tahlil asosida noma'lum shaxsning yozma nutqiga xos xususiyatlarini aniqlash va shu asosida uning umumiy portretini gavdalantirish mumkin. Bu, keyinchalik istiqbolli natijalarga sabab bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Mengliev B., Karimov R. Theoretical fundamentals of uzbek-english parallel corpus // JOURNAL OF CRITICAL REVIEWS ISSN- 2394-5125 VOL 7, ISSUE 17, 2020.
2. Perkins, R. (2012). Linguistic Identifiers of L1 Persian speakers writing in English. NLID for Authorship Analysis. Unpublished doctoral dissertation. Aston University, Birmingham, U.K;
3. MacDonald, P. (2016) "We All Make Mistakes!". Analysing an Error-coded Corpus of Spanish University Students' Written English, in Complutense Journal of English Studies, 24, 103-129.;
4. Koppel, M., Schler, J., & Zigdon, K. (2005). Determining an author's native language by mining a text for errors. In Proceedings of the eleventh ACM SIGKDD international conference on Knowledge discovery in data mining - KDD '05 (pp. 624-628). New York: ACM Press. doi:10.1145/1081870.1081947;
5. Malmasi, S. and Dras, M. (2015). Multilingual native language identification. Natural Language Engineering, 23(2), 163-215. doi:10.1017/S1351324915000406 Malmasi, S., Tetreault, J., & Dras, M. (2015). Oracle and Human Baselines for Native Language Identification. Proceedings of the Tenth Workshop on Innovative Use of NLP for Building Educational Applications, 172-178. doi:10.3115/v1/w15-0620;
6. Shatz, I. (2016). Native Language Influence During Second Language Acquisition: A Large Scale Learner Corpus Analysis. Proceedings of the Pacific Second Language Research Forum, 175-180.
7. Белова А. В. Лингвопрагматическая характеристика обратимой эпистолярной коммуникации. автореф. дисс... канд. филол. наук. Санк-Петербург, 2005.
8. Lewandowski, Th. Linguistisches Worterbuch (in 3 Banden). [Текст] / Th. Lewandowski // 6. Auflage. Heidelberg-Wiesbaden: Quelle&Meyer, 1994.
9. Milom V.L. Native Language Analysis in Forensic Linguistic Contexts: A Pilot Study Using Four Languages. 2019, - 52 p.
10. Shuy, R. DARE's Role in Linguistic Profiling. Dictionary of American Regional English, (2001). 4(3).